


Andijon davlat tibbiyot instituti, farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrası



Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedra mudri tibbiyot fanlari nomzodi

ZUMRAD ABDUQAYUMOVNA ERGASHEVA

Tel +99890-571-66-88

E-mail: ergasheva.1977@lisl.ru

FARMAKOLOGIYA VA KLINIK FARMAKOLOGIYA KAFEDRASI TARIXI VA FAOLIYATI

Kafedra 1985-1986 o'quv yilidan Andijon tuman shifoxonasi, 1995-1996 o'quv yilidan boshlab hozirgi kunga qadar Andijon shahar tibbiy birlashmasi Markaziy shifoxonasi qoshida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Kafedrani tashkil qilish ichki kasalliklar kafedrası o'qituvchisi, t.f.n. dotsent YU.M. Mamadovga topshirildi va institut Ilmiy kengashi qarori bilan kafedra mudiri lavozimiga saylandi.



**Kafedra asoschisi
profesor Y.M. Mamadov**

YU.M. Mamadovga 25 yil davomida kafedrani namunali boshqargach, 2008-yildan YU.M.Mamadov kafedra mudirligi lavozimini shogirdi dotsent T.A. Abdunazarovga topshirdi.



**t.f.n.dosent T.A. Abdunazarov
2008-2014 y. Kafedra mudiri**

O'QUV-USLUBIY ISHLAR

Klinik farmakologiya kafedrasini tashkil etilganligining dastlabki yillarida fanni o'qitish «Klinik farmakologiyaning dolzarb muammolari» bo'yicha Rostov-Don (1982 y) va Orjonikidze (1985 y) shaharlarida o'tkazilgan Umumittifoq anjumanlarida tasdiqlangan namunaviy dastur asosida yo'lga qo'yildi. Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan keyin esa, o'quv-uslubiy ishlar O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim Vazirligi hamda Sog'liqni saqlash Vazirligi tomonidan klinik farmakologiya fani bo'yicha tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yilda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»da belgilangan vazifalardan kelib chiqib hamda Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi «Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi 4-sonli qaroriga javoban, kafedra mudiri, professor YU.M. Mamadov tomonidan klinik farmakologiyadan o'quv qo'llanma yaratildi va Ibn Sino nashriyoti tomonidan 1999 yili chop etildi. YUqoridagilardan kelib chiqib, hamda Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 maydagi «O'quv dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini qayta ko'rib chiqish va yangilarini yaratish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi komissiyasini tuzish to'g'risida»gi 208-sonli qarorida yangi avlod adabiyotlarini yaratishning me'yoriy-huquqiy asoslarini aniq ko'rsatib berilganligi, prof. YU.M.Mamadov va hammualliflar tomonidan mamlakatimizda fan buyicha o'zbek tilidagi birinchi darslikni yaratilishiga turtki bo'ldi. (2003 yil, Toshkent, «Ibn Sino»). Darslikning lotin alifbosidagi varianti 2010 yilda (Toshkent, «Turon-iqbol») chop etildi. Ushbu darsliklar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan Respublikamizdagi farmatsevtika va tibbiyot institutlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etildi.



KAFEDRA ILMIY ISHLARI

Kafedrada ilmiy izlanish ishlari:

1. Farg'ona vodiysi o'simliklaridan yurak-qon tizilmasiga ta'sir qiluvchi o'simliklarni ilmiy o'rganish va amaliyotga kiritish;
2. Abu Rayxon al-Beruniy, Z.M. Bobur bobolarimizning tabobatga doir ishlarini zamon talabidan kelib chiqib o'rganish va taxlil qilish;
3. Farmakoepidemiologiya yo'nalishlarida ish olib borilmoqda.

Farg‘ona vodiysi o‘simliklaridan yurak-qon tizilmasiga ta‘sir qiluvchi o‘simliklarni ilmiy o‘rganish va amaliyotga kiritish masalasida YU.M.Mamadov boshchiligida kafedrada keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Xususan, eksperimental va klinik tekshiruvlar natijalari asosida Farg‘ona vodiysida o‘sadigan tillarang adonis o‘simligi damlamasi (Adonic chrysoyathus, Hook et Thoms) tayyorlash yo‘lga qo‘yilib, sobiq Ittifoq farmakologik qo‘mitasining 1973 yil iyun oyida chiqqan ruxsatnomasi bilan ushbu shifobaxsh damlanma yurak-qon tomirlari tizilmasi etishmovchiligi bilan kechadigan kasalliklarda samarali qo‘llana boshlandi.

Ko‘p yillar davomida, professor YU.M. Mamadov rahbarligida kafedra xodimlari O‘zFAGA qarashli O‘simliklar kimyo instituti glikozidlar laboratoriyasida O‘rta Osiyoda o‘sadigan o‘simliklardan olingan ladiginozid, leontozid [AS. SSSR № 1130348 ot 1984 god], dipsakozid [AS. SSSR № 1700003 ot 1991 god; P.RF № 2029554 ot 1995 god i RUz DP. №3506 ot 1996 god] nomli triterpen glikozidlarini eksperimentda chaqirilgan ateroskleroz kasalligida qonda xolesterinni kamaytirishi, qon ivishini susaytiruvchi, safro haydovchi, qalqonsimon bez va adenogipofiz gormonal faoliyatini oshiruvchi farmakologik ta‘sirlari borligini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar.

Ushbu olingan ilmiy xulosalar natijasida «Andajonim» [DP. RUz № 3301 ot 10 iyunya 1996 goda; P. RUz № I AR № 02012 ot 15 marta 2000 goda] va “YUsufiy (K)” («Flora») yaxna ichimliklari retsepturasi ishlab chiqildi va amaliyotga kiritildi.

Yaratilgan yaxna shifobaxsh ichimliklar klinikada sinab ko‘rilganda aterosklerotik, safro haydovchi, gepatoprotektik, immunomodulyatorlik ta‘sirlari borligi bemorlarda tasdiqlandi.



MA'NAVIY VA MA'RIFIY ISHLAR

Kafedraning ma‘rifiy va ma‘naviy ishlari yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi tamoyillarini qaror toptirish, ularni turli oqimlar, giyohvandlik va axloqsizlik, tashqaridan kirib kelayotgan tuban «Ommaviy madaniyat»ning illatlari xavfi va zararli ta‘sirotlaridan himoya kilish bo‘yicha tuzilgan chora-tadbirlari asosida olib boriladi. SHu bilan birga avvalo institut, qolaversa kafedra miqyosida Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyatini talabalar ongiga singdirish, tarbiyaviy jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Kafedra xodimlari tomonidan 2003 yilda institutimizda «Buyuk daxo al-Beruniy-1030 yoshda» mavzusidagi Andijon viloyati Oliy o‘quv yurtlari talabalari va yosh olimlari ishtirokida, 2004 yili Andijon davlat tibbiyot instituti qoshidagi akademik litsey talabalari bilan «Ma‘mun akademiasining 1000 yilligi»ga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkillashtirilib o‘tkazildi.



O‘tmish ajdodlarimizning boy tarixiy merosini chuqur o‘rganib, uni barkamol avlod tarbiyasiga yo‘naltirish orqali yoshlarimizni «Ommaviy madaniyat» ta‘siriga tushib qolishlarini oldini olish mumkin. Ushbu maqsad yo‘lida kafedra professori YU.M. Mamadov rahbarligida kafedrada Abu Rayxon al-Beruniy tomonidan umrining oxirida (1048) yozilgan va kam o‘rganilgan, 1973 yilda o‘zbek tilshunos olimi U.I.Karimov tomonidan rus tiliga tarjima kilingan “Saydana” asarining zamonaviy o‘simlikshunoslik, dorishunoslik va tibbiyot amaliyoti nuqtai nazaridan ko‘p yillik ilmiy o‘rganish ishlari natijasida “Saydana sirlari” nomli monografiya yaratildi

DAVOLASH ISHLARI

Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasi xodimlarini davolash ishlari Andijon shahar markaziy shifoxonasi bo‘limlarida farmakoterapiya jarayonini monitoringi bo‘yicha shifoxona ma‘muriyati bilan kelishilgan holda tuzilgan reja asosida ish olib boriladi.



Kafedra mudiri, tibbiyot fanlar nomzodi Z.A.Ergasheva-ning reja bo‘yicha ko‘rigi, Farmakologiya va klinik farmakologiya kafedrasi dotsenti T.A.Abdunazarov bo‘lim vrachi va klinik ordinator hamda talabalar bilan bemorlar ko‘ruvi vaqtida

Kafedra hodimlari

№	F.I.SH	Lavozimi
1	Ergasheva Z.A	Kafedra mudiri
2	Mamadov Yu.M	kafedra Professori
3	Abdunazarov T.A	kafedra dosenti
4	Xalilov A.N	kafedra assistenti
5	Eshonhujayev O.O	kafedra assistenti
6	Ziyayeva D.F	kafedra assistenti
7	Parpieva S.B	kafedra assistenti
8	Soliyev D.M	kafedra assistenti
9	Badalboyeva N.M	kafedra assistenti